

Ayollar sog'ligi – jamiyat boyligi

Joriy yilning 29 iyunida institutda “Ayollar sog'ligi – jamiyat boyligi” mavzusida onlayin vebinar tashkil etildi. Mazkur vebinarda Toshkent shaxar reproduktiv salomatlik markazining oliv toifali shifokorlari M.Asimova va K.Abdimuminovalar va professor-o'qituvchilar ishtirok etishdi. Kun tartibidagi masala bo'yicha oliv toifali shifokor-akusher-ginekolog M.Asimova xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini, huquqiy, tibbiy madaniyatini oshirish, xotin-qizlar, onalar va bolalarga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat hamda ular uchun yaratilayotgan imtiozlar va imkoniyatlardan foydalanish darajasini o'rganish to'g'risida va ma'lumot berdi.



Undan tashqari Reproduktiv yoshdagи ayollar, homiladorlar va bolalar uchun zamonaviy, yuqori texnologik, ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida hamda 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiysi to'g'risida va xotin-qizlar o'rtasida tushuntirish ishlari olib borish hamda yoshlarni oilaviy hayotga tayerlash bo'yicha to'xtalib o'tdi. Shundan so'ng ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga mutaxassislar tomonidan javoblar olishdi.

Institut xotin-qizlar kengashi raisi Z. Xafizova axboroti

TIQXMMI matbuot xizmati